

AFORIZMLAR VA KICHIK MATN SHAKLLARINING INGLIZ HAMDA O'ZBEK TILLARIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18076402>

Akramov Izzatulla Ikromovich

Buxoro Davlat Universiteti, professor, PhD

Orcid: <https://orcid.org/0000-0003-4358-634X>

Email: i.i.akramov@buxdu.uz, izzat.ikrom6891@gmail.com

Phone: +998973020149

Subhonova Shohida Erdonovna

Bukhara State University,

Email: subhonovashohida@gmail.com

Phone: +998936220705

Annotasiya

Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi aforizmlar, maqollar va kichik matn shakllarining lingvokulturologik hamda qiyosiy tahlili taqdim etiladi. Tadqiqotning maqsadi ikki madaniyatdagi qadriyatlar, prototipik vaziyat modellari va nutq pragmatikasini aforizm va maqollar semantikasi, obrazlar tizimi hamda ritorik vositalar orqali solishtirma ta'sir doirasida yoritishdan iborat. Material sifatida o'zbek xalq maqollari to'plamlari va ingliz maqollari lug'atlari asosida jami 600 birlikdan iborat korpus shakllantirildi; metodlar tarkibida lingvokulturologik talqin, paremiologik tipologizasiya, konseptual metaforalar tahlili va qiyosiy-solishtirma usullar qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ikki tilda "vaqt", "mehnat", "oilaviy munosabatlar", "es-hush va tajriba" kabi semantik maydonlar ustuvor, bunda konseptual metaforalar [vaqt – qimmat, hayot – sayohat, mehnat – urinch] markaziy rol o'ynaydi. Formal jihatdan o'zbek maqollarida parallelizm, paronomasiya va qofiyaga moyillik, ingliz korpusida esa qisqalik, antiteza va sabab-oqibat zanjiri keng kuzatildi. Kross-madaniy o'xshashliklar qatorida "vaqt qimmat" kabi umuminsoniy modellar, farqlarda esa individual tashabbus va jamoaviy muvozanatni targ'ib qiluvchi normalar nisbati aniqlandi. Amaliy natijalar tarjima amaliyoti, ikki tilli lug'at tuzish, ta'lim va mediamatn tahrirlashda tatbiqiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar

aforizm, maqol, paremiologiya, lingvokulturologiya, konseptual metafora, qiyosiy tahlil, ritorik vositalar, semantik maydon.

A LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF APHORISMS AND SMALL TEXT FORMS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article presents a linguo-culturological and comparative study of aphorisms, proverbs, and other small text forms in English and Uzbek. The research aims to elucidate how cultural values, prototypical situation models, and pragmatic features of speech are reflected through the semantics, imagery, and rhetorical devices of aphorisms and proverbs within a comparative framework. The empirical material consists of a 600-unit corpus compiled from collections of Uzbek folk proverbs and English proverb dictionaries. The methodological framework incorporates linguo-culturological interpretation, paremiological typology, conceptual metaphor analysis, and comparative-contrastive approaches. Findings demonstrate that the semantic fields of time, labor, family relations, and mind and experience prevail in both languages, with conceptual metaphors such as [time – as value], [life – as journey], and [labor – as effort] playing central roles. Structurally, Uzbek proverbs exhibit pronounced parallelism, paronomasia, and rhyme, whereas the English corpus is characterized by brevity, antithesis, and causal sequencing. Cross-cultural parallels include universal models such as “time is valuable,” while distinctions reveal differing emphases on individual initiative versus collective balance. The practical implications of the study extend to translation studies, bilingual lexicography, language education, and media text editing.

Key words

aphorism, proverb, paremiology, linguoculturology, conceptual metaphor, comparative analysis, rhetorical devices, semantic field.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АФОРИЗМОВ И МАЛЫХ ТЕКСТОВЫХ ФОРМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье представлен лингвокультурологический и сопоставительный анализ афоризмов, пословиц и других малых текстовых форм в английском и узбекском языках. Цель исследования заключается в раскрытии того, как культурные ценности, прототипические модели ситуаций и прагматические особенности речи отражаются через семантику, образность и риторические средства афоризмов и пословиц в сравнительном аспекте. Эмпирическую базу составил корпус из 600 единиц, сформированный на основе сборников

узбекских народных пословиц и словарей английских пословиц. Методологическая основа исследования включает лингвокультурологическую интерпретацию, паремиологическую типологизацию, анализ концептуальных метафор и сравнительно-сопоставительный подход. Полученные результаты показывают, что в обеих языковых системах преобладают семантические поля время, труд, семейные отношения, разум и опыт, где центральную роль играют концептуальные метафоры [время — ценность], [жизнь — путешествие], [труд — усилие]. С формальной точки зрения для узбекских пословиц характерны параллелизм, паронимия и рифма, в то время как английский корпус отличается краткостью, антитезой и причинно-следственной последовательностью. Среди межкультурных сходств выявлены универсальные модели, например «время — ценность», тогда как различия отражают соотношение норм, поощряющих индивидуальную инициативу и коллективное равновесие. Практическая значимость исследования заключается в его применимости в переводоведении, двуязычной лексикографии, языковом образовании и редактировании медиатекстов.

Ключевые слова

афоризм, пословица, паремиология, лингвокультурология, концептуальная метафора, сопоставительный анализ, риторические средства, семантическое поле.

Kichik janrlar — aforizm, maqol, qanotli ibora, matal — til va madaniyatning aloqador qatlamlarini jamlaydigan, qisqaligi va umumlashtiruvchi quvvati bilan ajralib turadigan birliklardir. Aksariyat tadqiqotchilar ularning funksiyasini jamiyat tajribasini qisqa, ta'sirchan qoliplarda uzatish bilan bog'laydilar. Masalan, paremiologiyada so'z yuritilganidek, "maqollar qisqa, umumiy tanilgan va hayotiy tajribani jamlagan hikmatli hukmlardir" [5.3.] Bu ta'rif qisman universal bo'lsa-da, janrning dinamik tabiati va nutqiy sharoitga bog'liqligi sabab ba'zi cheklanishlarga ega. A. Teylor mashhur mulohazasida "maqol ta'rifi shuncha mushkulki, u bilan shug'ullanish har doim ham o'zini oqlamaydi", deb yozadi [2.3]. Bu fikrni ehtiyotkor qo'llab-quvvatlaymiz: qator hollarda maqol, aforizm va qanotli ibora chegaralari kesishadi, ammo ularni funksional-pragmatik mezonlar asosida tabaqalash mumkin. Lingvokulturologiya nuqtai nazaridan bu birliklar til qonuniyatlari va madaniy kodlar tutulgan "burmalanmas ayna" vazifasini bajaradi. V. Vorobyov ta'kidlaganidek, "lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ma'no va qiymatlar harakatini o'rganadi" [3.34.]. Ushbu ishda

biz ushbu yondashuvni ingliz va o'zbek materiallari asosida sinab, o'xshash va farqli madaniy-axloqiy kodlarni qiyosiy ravishda ochishni maqsad qildik.

Tadqiqot jarayoni ko'plab ingliz va o'zbek aforizm va maqollarini o'z ichiga oladi. O'zbek qismi "O'zbek xalq maqollari" to'plami asosida tuzildi; ingliz qismi esa nufuzli maqollar lug'atlari va qo'llanmalaridan tanlab olindi. Birliklar semantik maydonlar (vaqt, mehnat, oila va jamoat, aql-tajriba, boylik-kambag'allik, umuminsoniy axloq), ritorik vositalar (antiteza, parallelizm, qofiya, paronomasiya), kompozision qoliplar (sabab-oqibat, shart-natija, muqoyasa) va konseptual metaforalar (Vaqt—Qimmat, Hayot—Sayohat, Ijtimoiy tartib—Tan/Uy) bo'yicha kodlandi. Metodlar tarkibi: paremiologik tipologizasiya va modellarash lingvokulturologik interpretasiya; konseptual metafora nazariyasi; qiyosiy-strukturaviy tahlil va minimal kvantitativ hisoblar. Aforizm va maqol chegaralarini aniqlashda janriy-stilistik belgilarga tayandik: aforizm — individual muallifga taalluqli, lakonik, ko'proq antinomiya qurilgan hikmat; maqol — kollektiv tajribaga borib taqaluvchi, holat modelini normallashtiruvchi qolip. Tarjimaviy ekvivalentlikni to'liq va qisman ekvivalent, funksional o'rinbosar va madaniy lakuna kabi turlarga ajratdik. Ish jarayonida korpus birliklari orfografik va ma'naviy tozalandi; dubletlar chiqarildi; har bir birlikka mavzuy kod, ritorik kod va metafora kodi berildi. Hisobning ishonchliligi uchun ikki mutaxassis tomonidan qayta kodlash amaliyoti qo'llandi; kelishmovchiliklar 8,7% ni tashkil etib, muhokama orqali bartaraf etildi.

Birinchi natija semantik maydonlar taqsimoti bo'yicha amalaga oshirilgan. Ikki korpusda ham "vaqt" va "mehnat" doirasi etakchi bo'lib chiqdi: o'zbek korpusida 22%, inglizda 25% atrofida. "Oila-jamoat" o'zbek materiallarida kuchliroq (20% ga yaqin), inglizda esa "individual tashabbus va ehtiyot" maydoni yuqoriroq (17%). Mazkur ustuvorliklar ikki madaniyatdagi qiymatlar ierarxiyasini ko'rsatadi: hamkorlik, ixtilofni yumshatish, xulq me'yorlari o'zbek maqollarida ko'proq normalashtirilgan; ingliz aforizm va maqollarida esa shaxsiy mas'uliyat, vaqtni tejash va natijaviylikka urg'u yaqqol. Masalan, o'zbekda "Erta turgan el ishini bitirgan" kabi formula vaqtning ertalikdagi samarasini targ'ib etadi; ingliz korpusida mazmunan mos birlik vaqtni saranjom sarf qilishni qiymatga tenglashtiradi. Bu yerda "Vaqt—Qimmat" metaforasi ikkala korpusda ham to'liq ishlaydi, biroq ekvivalent obraz turlicha: o'zbekda qimmat "oltin" obrazomda, inglizda esa iqtisodiy kategoriya ruhiga yaqin holda namoyon bo'ladi [6.3.].

Ikkinchi natija — kompozision qoliplar. Ingliz qismda sabab-oqibat qurilishi ancha yuqori (%36), masalan, "vaqtida qilingan ish to'qqiz tashvishni oldini oladi" mazmunidagi qoida. O'zbek yakkasining ko'pchiligi muqoyasa va muqobillikka

(antiteza) qurilgan: “Yaxshilik qil — yaxshilik top”, “Tilni tiy — tinchlik top”. Bu joyda Permyakovning “maqol — odatiy vaziyat modeli” degan ta’rifi korpus natijalari bilan uyg’un: birliklar normal vaziyatni qisqa qoida sifatida kodlaydi [4.25.].

Uchinchi natija — ritorik vositalar. O‘zbek birliklarida parallelizm va paronomasiya ko‘rsatkichi yuqori: fonetik uyg’unlik va qofiya xotirada saqlanishni kuchaytiradi (“Yo‘ldoshing yaxshi bo‘lsa, yo‘ling uzoq emas”). Ingliz qismda lakonok antiteza va fozillikni bahs qiladigan zidlanishlar ustun (“yolg‘on qutqaradi, rost ozod qiladi” mazmunidagi hukmlar). Mider ta’kidlagan “qisqalik va umumiy tanilish” belgisi, shubhasiz, har ikkala korpusga ham taalluqli [1.11.], ammo o‘zbekda fonetik to‘qima nutqiy ijroda kattaroq rol o‘ynaydi — bu holat tarjima amaliyotida ekvivalentlik tipini “semantik+ritorik” darajada izlashni taqozo etadi.

To‘rtinchi natija — ekvivalentlik. To‘liq ekvivalentlar: “Sukuti tildan qimmat” ↔ “sukut — qimmat”, “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” ↔ “matosiga qarab kiyim tik”. Qisman ekvivalentlar: “Yig‘lagan bolaga ovqat berishar” ↔ “tovush chiqargan da’vosi eshitilar” mazmunidagi hukm — bu yerda ijtimoiy mexanizmlar aksining madaniyatlararo detallari farq qiladi. Madaniy lakunalar ham uchradi: ayrim o‘zbek birliklarida qo‘shnichilik, qarindoshchilik me‘yorlari xele keng namoyon; inglizda sharh talab qiladigan iqtisodiy-huquqiy realiyalar mavjud. Bunday hollarda funksional o‘rinbosar izlash maqsadga muvofiq.

Beshinchi natija — janriy chegaralar. Aforizmlar individual uslub, metafizik qayam va antinomiyaga moyilligi bilan ajralib turdi. J. Gross to‘plagan aforizmlardan kelib chiqsak, “aforizmning kuchi — aytishdagina emas, ayta olmaganini eshittira olishda” degan gapni umumlalashtirish mumkin; bu fikr janrning implikaturaga suyanganini anglatadi [8.15.]. Bizningcha, aforizm va maqol o‘rtasidagi chegara nutqiy vazifada aniqlanadi: qoida qo‘yuvchi, vaziyatni modellovchi qolip — maqol; umumiy hayotiy paradoksni hikmat tarzida ifodalovchi lakonok hukm — aforizm.

Natijalarni nazariy manbalar bilan uyg’un tahlil etish bir necha xulosalarni beradi. Birinchidan, Teylor ta’kidlagan ta’rif muammosi amalda ham namoyon bo‘ldi: janrlar ustma-ust tushadi, ayni bir birlik turli kontekstda bir tarafga og‘ishi mumkin [2.3.]. Biz buni funksional-pragmatik mezonlar bilan echimini topish mumkin, deb hisoblaymiz. Ikkinchidan, Miderning “umumiy tanilish va qonundashlik” belgisi korpusda tasdiqlandi; biroq “umumiy tanilish” madaniy doira bilan cheklanishi, tarjima va qabul qilishda yangi semantik chegaralar hosil qilishi mumkin [1.3-11.]. Uchinchidan, Vorobyov ko‘rsatgan til-madaniyat

bogʻlamlari oʻzbek va ingliz paremiologik birliklarida qiymatlar ierarxiyasi, meʼyoriy diskurs va obrazlar tanlovida yaqqol namoyon boʻldi [3.34.]. Toʻrtinchidan, konseptual metafora nazariyasi kichik janrlardagi maʼno iqtisodi va obrazning kognitiv kuchini tushuntirishda samarali yordam berdi: “Vaqt—Qimmat”, “Bilish—Koʻrish”, “Ijtimoiy tartib—Uy/Tan” kabi modellar har ikki korpusdagi koʻp birliklar semantik ustunligini belgiladi [6.3.]. Beshinchidan, Permyakovning “odatiy vaziyat modeli” konsepsiyasi maqollarning normallovchi-qonuniylashtiruvchi funksiyasini koʻrsatishda asosiy evristika boʻldi [4.25.].

Ilmiy va amaliy taqqoslash nuqtai nazaridan yana bir jihat muhim: oʻzbek birliklarida fonetik sozlanish va parallelizm nutqiy ijroda taʼsir kuchini oshiradi. Bu tarjima chogʻida semantik ekvivalent topishdan tashqari, ritorik taʼsirni ham hisobga olishni talab qiladi. Masalan, “Ert turgan er ishini bitirgan” uchun mazmunan mos birlik topish bilan birga, izchil qofiya, paronomasiya yoki tezis-antitezis tuzilishini ham qidirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, lugʻat tuzishda birliklarni faqat alfavit bilan emas, balki semantik maydonlar va konseptual metaforalar boʻyicha indekslash, foydalanuvchiga mazmun boʻylab navigasiya imkonini beradi. Mazkur yondashuv paremiologik maʼlumot bazalarining oʻquv va tarjimaviy qiymatini ortadi.

Ilmiy manbalarda baʼzan “maqol — qotib qolgan hikmat” degan qarash uchraydi. Biz buni shartli ravishda baholaymiz: albatta, qoliqlik bor, ammo mediamakon va ijtimoiy oʻzgarishlar taʼsirida yangi aforizmlar, jargonlashgan qoidashakllar ham tezda ommalashmoqda. J. Spik muharrirligidiki lugʻatda zamonaviy qoʻshimchalar bilan ishlashga intilgan redaksiya siyosati bunga misol boʻla oladi [5.7-9.]. Shu maʼnoda, korpuslarni doimiy yangilab borish, ommaviy kommunikasiyadagi oʻzgarishlarni qayd etish maqol va aforizmlarning “tirik anʼana” ekanini koʻrsatadi.

Tarjima amaliyotida esa ikki qoida muhim: 1) maʼno yadrosini saqlash; 2) ritorik taʼsirni, mumkin qadar, funksional oʻrinbosarlar orqali tiklash. Masalan, “Koʻrpangga qarab oyoq uzat” birligi uchun mazmunan mos tarjimaga qoʻshimcha ravishda oʻlchov-chetlash amallarini ifodalaydigan qiyos qolipini izlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, frazeologik-integrativ lugʻatlarda maqollar va aforizmlar uchun “ssenariy tavsifi”ni berish (prototipik vaziyat, ishtirokchilar, intizom qoidasi) oʻquvchiga qoʻshimcha pragmatik yoʻl-yoʻriq taqdim etadi [9. 5-9.] Tadqiqot ingliz va oʻzbek kichik janrlarining semantik, ritorik va kognitiv-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy rejada yoritdi. Asosiy xulosalar: 1) “vaqt”, “mehnat”, “oila”, “tajriba” maydonlari ikki korpusda ustuvor; 2) “Vaqt—Qimmat” va “Hayot—Sayohat” kabi konseptual metaforalar markaziy; 3) oʻzbek birliklarida parallelizm

va fonetik to‘qima kuchli, inglizda lakonok antiteza va sabab-oqibat qoliplari keng; 4) to‘liq va qisman ekvivalentlar qatorida funksional o‘rinbosarlar ham muhim; 5) aforizm-maqol chegarasi nutqiy vazifa va ijodiy/kollektiv manbaga ko‘ra belgilanadi. Ishning ilmiy yangiligi – lingvokulturologik metrika semantik maydon+metafora+ritorika]ni birlashtirib, ikki til korpusi bo‘yicha ekvivalentlik va modellash mezonlarini aniqlashda namoyish etildi. Amaliy ahamiyat: tarjima, ikki tilli lug‘at tuzish, ta‘lim metodikasi va mediamatn tahrirlash amaliyotida qo‘llanadi. Keyingi tajribalar uchun elektron korpuslardan avtomatik kollokasiya va metafora aniqlash algoritmlarini jalb qilish, janrning zamonaviy mediamakondagi o‘zgarish dinamikasini kuzatish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akramov Izzatulla Ikromovich. (2025). LINGUOCULTURAL AND COMPARATIVE ANALYSIS OF APHORISMS AND SHORT TEXT FORMS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17577224>
2. Akramov, I. I. (2022). The special characteristics of the aphorisms. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1).
3. Gross, John [ed.]. The Oxford Book of Aphorisms. Oxford: Oxford University Press, 1983. 408 p.
4. Ikromovich, A. I. (2024). A Parallel Examination of the Aphorisms of Love by Shakespeare and Rumi. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 569-573.
5. Lakoff, George; Johnson, Mark. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. 242 p.
6. Mider, Volfgang. Proverbs: A Handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004. 240 b.
7. Mirzaev, To‘ra; Yo‘ldoshev, Abdulla va boshq. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978. 512 b.
8. Permyakov, G. L. Osnovi strukturnoy paremiologii. Moskva: Nauka, 1988. 264 b.
9. Rahmatullaev, Shamsiddin. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘zSSR FA “Fan” nashriyoti, 1978. 600 b.
10. Speake, Jennifer [ed.]. The Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford: Oxford University Press, 2015. 400 p.

11. Taylor, Archer. The Proverb. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1931. 270 p.
12. Vorobyov, V. V. Lingvokulturologiya: teoriya i metodi. Moskva: RUDN, 1997. 331 b.